

**IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTI**  
**“ISLOM MA’RIFATI” JURNALIGA MAQOLA RASMIYLASHTIRISH**  
**TALABLARI**

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining “Islom ma’rifati” nomli ilmiy-tahliliy jurnali ta’lim va ilmiy-tadqiqot markazlar xodimlari, mahalliy va xorijlik tadqiqotchilar, olimlar, mutaxassislar hamda mustaqil izlanuvchilarning maqolalarini qabul qiladi.

Jurnalga islom tarixi, islomshunoslik, dinshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik, islom huquqi, faroiz, aqid va kalom ilmi, filologik tadqiqotlar, islom falsafasi, shuningdek, diniy-ma’rifiy sohalariga oid ilmiy maqolalar qabul qilinadi.

Mazkur jurnal yilda to‘rt marta nashr qilinadi. Ahamiyatga molik tadbirlar yoki muhim sanalar munosabati bilan zarurat yuzasidan qo‘shma son sifatida chop etilishi mumkin. Mazkur jurnalda maqolasi chop etilgan mualliflarga qalam haqi to‘lanmaydi.

**Eslatma:** Tahrir hay’ati vakillaridan birining yoki bir nechtasining e’tiroziga ko‘ra, maqola nashr etilmasigi mumkin. Tahrir hay’ati institut va turdosh boshqa ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar jamoasidan iborat.

**Mualliflar va maqolalarga qo‘yilgan talablar**

“Islom ma’rifati” jurnaliga o‘zbek, rus, ingliz, va arab tillaridagi maqolalar quyidagi talablar asosida qabul qilinadi.

**Muallif:** muallifning ism-sharifi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron manzili va telefon raqami to‘liq ko‘rsatilsin (o‘ng tomonda, 14 shrift o‘lchamida, 1 intervalda).

**Maqolaning nomi:** faqat bosh harflarda, qoraytirilgan shaklda **o‘zbek** va **ingliz** tillarida beriladi. Agar maqola arab tilida bo‘lsa qo‘shimcha ingliz va o‘zbek tillarida maqola nomi va annotatsiyasi izohlansin.

**Annotatsiya va tayanch soʻzlar:** tadqiqot maqsadi va natijalarini oʻz ichiga olgan (50-100 soʻzdan iborat) annotatsiya, va 8-10 ta soʻzdan iborat tayanch soʻzlar oʻzbek va ingliz tillarida beriladi.

Annotatsiya va tayanch soʻzlar tarjimasini elektron tarjima dasturi asosida amalga oshirilganda albatta mutaxassis tekshiruvidan oʻtkazish va tarjima toʻgʻri amalga oshirilganiga ishonch hosil qilish talab etiladi.

Jurnalga taqdim etilayotgan maqolalar biron ilmiy masalaning tahlili va yechimiga qaratilgan, tugallangan va xulosalangan, imkon qadar ilmiy ahamiyati asoslangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan, ilgari boshqa nashrlarda eʼlon qilinmagan boʻlishi lozim. Mualliflar maqolada keltirilgan oyat, hadislar va ularning maʼno tarjimalari, tarixiy dalillar, raqamlar va istilohlar, koʻchimalar olingan manbalar hamda boshqa maʼlumotlarning aniq va toʻgʻriligi uchun shaxsan masʼul va javobgardir.

**Maqola matni:** Oʻzbek tilidagi matnlar lotin alifbosiga asoslangan oʻzbek yozuvida, Word dasturida, “Times New Roman” shriftida, 14 shrift oʻlchamida, 1,5 intervalda, hoshiyalar yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, oʻngdan 1,5 sm, har satrboshi 0,5 sm boʻlishi lozim.

**Maqola hajmi:** 8-12 sahifadan iborat boʻlishi lozim.

**Havolalar:** Maqola matni ichida havolalar toʻrt burchak kavs ichiga olinadi va quyidagi [2: 87-b.] tartibda beriladi. Agar bittadan koʻp manbadan foydalanilganda [2: 87-b.; 6: 120-b.] tartibda keltiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** maqolaning oxirida alifbo tartibida beriladi. Internet saytlari linki toʻliq koʻrsatilishi kerak.

1. Burhoniddin Margʻinoniy. Hidoya sharhi bidoyatul-mubtadiy. – Madina: Dor as-siroj, 2019. J-5. – 520 b.

2. Muhammadsidiqov, M. (2022). Jamiyat barqarorligiga taʼsir etuvchi maʼnaviy va siyosiy tahdidlar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 1074-1082.

3. <https://oliymahad.uz/39663>

Maqolani elektron tarzda e-mail: [islom-instituti@umail.uz](mailto:islom-instituti@umail.uz)ga “Islom ma’rifati” jurnaliga deb taqdim etiladi.

Maqola joylangan fayl muallif ism-sharifi va jurnal soni ko‘rsatilgan holda nomlanishi shart. Masalan, abdullayevAX2.

**Manzilimiz:** O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Zargaynar 18-berk ko‘cha, 47-uy, (pochta indeksi 100002)

**Murojaat uchun:** Tel: +998-71-227-42-37; +998909067313 (Telegram: [https://t.me/m\\_erkayev](https://t.me/m_erkayev))

NAMUNA

**Abdulla ABDULLAYEV,**

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent  
islom instituti “Aqoid va fihiy  
fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi,  
Islomshunoslik fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD)

e-mail.: [abullayev@gmail.com](mailto:abullayev@gmail.com)

tel.: +998900000001

### MAQOLA MAVZUSI

**Annotatsiya.** Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya  
Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya  
Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya Annotatsiya (50-100 so‘zdan  
iborat).

**Annotation.** Annotation Annotation Annotation Annotation Annotation  
Annotation Annotation Annotation Annotation Annotation Annotation Annotation  
Annotation Annotation Annotation Annotation Annotation

**Tayanch so‘zlar:** 8-10 ta so‘zdan iborat

**Key words:**

Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn  
Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn [2: 87-b.].

Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn  
Matn Matn Matn Matn Matn Matn [2: 87-b.; 6: 120-b.]. (ikkita adabiyotdan  
faydalanganingizda)

Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn  
Matn Matn Matn Matn Matn Matn Matn [https://oliymahad.uz/39663] (internet  
saytidan faydalanganingizda)

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya sharhi bidoyatul-mubtadiy. – Madina: Dor as-siroj, 2019. J-5. – 520 b.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi va tafsiri. – Toshkent. Sano standart, 2021. – 624 b.
3. Muhammadsidiqov, M. (2022). Jamiyat barqarorligiga ta'sir etuvchi ma'naviy va siyosiy tahdidlar.
4. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 1074-1082.
5. <https://oliymahad.uz/39663>